



UDC: 811.111:378.147

Dildora AVEZOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti, TATU katta o'qituvchisi

E-mail:avezova_d@nuu.uz

TATU dotsenti, PhD D.Abduvaxobova taqrizi asosida

LINGUISTIC MEMORY: INTERPRETATION OF ARCHAISMS AND HISTORICISMS IN LINGUISTICS

Annotation

This article examines the linguistic characteristics of obsolete words - lexical units that have fallen out of active use but have been preserved in the historical or literary strata of the language. The research primarily focuses on the classification and comparative analysis of archaisms and historicisms in Uzbek, Russian, and English linguistics. Archaisms are defined as words that have modern equivalents in the current language but are not widely used today. Historicisms, on the other hand, are words that denote objects or concepts no longer existing in modern reality. Drawing on the theories of Uzbek, Russian, and English scholars, the article analyzes the role of linguistic and extralinguistic factors in the obsolescence of vocabulary.

ЯЗЫКОВАЯ ПАМЯТЬ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АРХАИЗМОВ И ИСТОРИЗМОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данная статья исследует лингвистические особенности устаревших слов – лексических единиц, вышедших из активного употребления, но сохранившихся в исторических или литературных пластах языка. В исследовании основное внимание уделяется классификации и сравнительному анализу архаизмов и историзмов в узбекском, русском и английском языкознании. Архаизмы определяются как слова, имеющие современные эквиваленты в нынешнем языке, но не широко используемые в настоящее время. Историзмы – это слова, обозначающие предметы или понятия, которые отсутствуют в современной действительности. В статье, опираясь на теории узбекских, русских и английских ученых, анализируется роль лингвистических и экстралингвистических факторов в процессе устаревания словарного состава.

TIL XOTIRASI: ARXAIZM VA ISTORIZMLARNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqola eskirgan so'zlar – faol qo'llanishdan chiqib ketgan, biroq tilning tarixiy yoki adabiy qatlamlarida saqlanib qolgan leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor o'zbek, rus va ingliz tilshunosligidagi arxaizm va istorizmlarning tasnifi hamda qiyosiy tahliliga qaratilgan. Arxaizmlar hozirgi tilda zamonaviy muqobillarga ega bo'lgan, ammo bugungi kunda keng qo'llanilmaydigan so'zlar sifatida ta'riflanadi. IstORIZMLAR esa zamonaviy voqelikda mavjud bo'lmagan predmet yoki tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir. Maqolada o'zbek, rus, ingliz olimlarining nazariyalariga tayanib, lingvistik va ekstralingvistik omillarning lug'at tarkibining eskirishidagi roli tahlil qilinadi.

Kirish. Tilning mavjud lug'at tarkibi muttasil ravishda o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar bir tomondan tilga yangi so'zlar kirib kelishi evaziga sodir bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayrim so'zlarning tilning faol lug'ati tarkibidan passiv lug'at qatlami tarkibiga o'tishi evaziga sodir bo'ladi.

Eskirgan so'zlar – o'tmishda qo'llanilgan, kundalik nutqda endilikda faol ishlatilmaydigan, ammo tilning passiv lug'ati tarkibida saqlanib qolgan leksik birliklardir. Boshqacha aytganda, bunday so'zlar hozirgi davr tilida "eskilik bo'yog'iga ega" – ya'ni, shaklan eski so'zlardir. Tilshunos oim, M.T. Irisqulov so'zlarning kundalik nutq jarayonidan chiqib ketish hodisasi jonli tillar uchun tabiiy hol ekanligi, hamda ishlatilishdan chiqib ketgan yoki chiqib ketayotgan so'zlar tilshunoslik fanida istorizmlar va arxaizmlarga ajratilishini ta'kidlaydi [1].

Tilning rivojlanish jarayonida muayyan so'zlar ikki asosiy sababga ko'ra faol qo'llanishdan chiqadi. Birinchi sabab lingvistik omil ta'sirida sodir bo'ladi, bu so'zning o'rmini yangi paydo bo'lgan sinonimi tomonidan egallanishidir. Ushbu holatda narsa yoki hodisaning o'zi saqlanib qoladi, lekin u endi boshqa – zamonaviyroq so'z bilan ataladi, natijada avvalgi so'z iste'moldan chiqib passiv lug'at tarkibiga o'tadi. Masalan: avaxta, axtaxona (otxona), bayt (uy, xona), baliq, balig' (shahar, qo'rg'on). Ikkinchi sabab esa tarixiy omil sabab sodir bo'ladi. Bu so'z nom bo'lgan narsa yoki hodisaning jamiyat hayotidan yo'qolishidir.

Ushbu holatda so'z ifodalagan tushunchaning o'zi hayotda yo'qolib ketadi va shu bilan birga ushbu narsa yoki hodisaga nom bo'lgan so'zning o'zi ham eskiradi. Masalan: ark (xon yoki amirning atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on-saroyi), ko'handiz (shahar arki, hukumdor qarorgohi), xandaq (qadimda va o'rta asrlarda shahar, qal'a, qo'rg'on va mudofaa istehkomlarini dushman hujumidan ehtiyot qilish maqsadida ularning tashqi devori yonidan gir aylanasi qazilgan o'ra, chuqurlik).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida ko'plab tilshunos olimlar mazkur mavzu borasida tadqiqotlar olib borgan. Shu jumladan, L. Hojiyev, A. Ahmedov (1981)[2], O. G'ulomov, S. Akobirov (1987) [3], Shavkat Rahmatullayev (2006) [4]. Sh. Rahmatullayev o'zining "Hozirgi adabiy o'zbek tili" asarida arxaizm va istorizmlarni alohida hodisalar sifatida ko'rib, ularni qat'iy farqlash lozimligini ta'kidlagan. Muallif arxaizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Tilning aynan hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi", hamda "Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi" deya izohlaydi [5]. O'zbek tilshunoslari asarlarida (Rahmatullayev, G'ulomov, Akobirov va boshqar) eskirgan so'zlarning lug'aviy xususiyatlari, ularning tarixiy matnlardagi roli va uslubiy funksiyalari keng tahlil qilingan. Jumladan, ular

eskirgan so'zlar matnda tarixiylik rangini berish uchun xizmat qilishini qayd etadilar.

Rus tiliga oid eskirgan so'zlar, ya'ni arxaizmlar va istorizmlar masalasi ko'plab rus tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan. V. V. Vinogradov rus adabiy tilida eskirgan leksikaning uslubiy vazifalarini tadqiq qilgan bo'lsa, N. M. Shanskiy arxaizmlarning semantik klassifikatsiyasini taklif etgan [6]. D.E.Rozentalning "Tilshunoslik atamaları lug'ati"da keltirilishicha, "arxaizmlar – ma'lum bir davr uchun eskirgan, qo'llanishdan chiqqan va boshqa birliklar bilan almashtirilgan til elementlaridir". Shuningdek, O. S. Akhmanova va L. P. Jerebilo kabi olimlarning fikriga ko'ra arxaizmlar "zamonaviy ekvivalentga ega bo'lgan, aktual tushuncha eski nomi" sifatida tariflanadi. Rus tilshunoslari passiv lug'at tarkibiga o'tgan so'zlarning xususiyatlarini nafaqat lug'aviy, balki grammatik, fonetik jihatdan ham tadqiq etib, ularning turlari hamda matndagi funksiyalarini izohlaganlar.

Ingliz tilshunosligida eskirgan so'zlar muammosi asosan leksikologiya va stilistika aspektlari doirasida o'rganilgan. Ingliz tilida bunday faol foydalanilmaydigan so'zlar odatda archaic (arxaik) yoki obsolete (iste'moldan chiqqan) degan belgi ostida lug'atlarda ko'rsatiladi. Masalan, Devid Kristal arxaizmlarni "A term used in relation to any domain of language structure for an old word or phrase no longer in general spoken or written use" ya'ni – til tuzilishining istalgan sohasida qo'llaniladigan, hozirgi kunda umumiy og'zaki yoki yozma nutqda ishlatilmay qo'yilgan eski so'z yoki iboralarni anglatuvchi atama deya ta'riflagan. Ingliz tilshunos olimlari orasida I. R. Galperin va R. Ginzburg kabi tadqiqotchilar XX asrda arxaizmlar klassifikatsiyasini ishlab chiqadilar. Galperin o'zining ingliz tili leksikologiyasi va uslubiyatiga oid tadqiqotlarida eskirgan so'zlarning eskirish jarayonini uch bosqichga obsolescent – eskirayotgan, obsolete – eskirgan va archaic proper – to'liq arxaik ajratadi [7]. Shuningdek, ingliz huquq tili stilistikasida arxaik birliklarni o'rganan Laxmi Chauhan (2013) kabi tadqiqotchilar ham mavjud bo'lib, ular arxaik leksikaning maxsus maqsadli sohalardagi rolini yoritib berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola empirik tajribalarga asoslanmagan bo'lib, fundamental tadqiqot ishi sifatida tasniflangan nazariy-tahliliy tadqiqotdir. Tadqiqot metodologiyasi asosan qiyosiy tahlil va leksik-semantik tahlil yondashuvlariga asoslanadi. Qiyosiy usul yordamida o'zbek, rus va ingliz tilshunosligida eskirgan so'zlarning, ya'ni, arxaizmlar va istorizmlarning ta'rifi va tasnifi o'zaro solishtirilgan hamda ularning farqli jihatlari aniqlangan. Bundan tashqari, har bir tildagi eskirgan so'zlarning bugungi kundagi faol muqobilaridan qanday farqlanishini va sinonimik munosabatlar doirasida qanday ma'noviy o'zgarishlar sodir bo'lganligini tahlil qilishda leksik-semantik yondashuv qo'llanildi. Bu jarayonda eskirgan so'zlar leksik, semantik va uslubiy xususiyatlari jihatlardan atroflicha o'rganib chiqildi.

Tahlil jarayonida ilmiy manbalar, izohli va ensiklopedik lug'atlar, tilshunoslikka oid maqolalar hamda tarixiy tilshunoslik tadqiqotlarini muntazam ravishda o'rganish asosiy ma'lumot manbai vazifasini o'tadi. Har bir xulosa yoki ilmiy fikr tegishli tilshunoslarning iqtiboslari, ularning nazariy qarashlari va nufuzli lug'atlarda keltirilgan ta'riflar bilan asoslanib, barcha talqinlarning dalillangan va puxta hujjatlashtirilganligini ta'minladi. Bundan tashqari, maqolada eskirgan so'zlar turli davrlarga oid tarixiy, badiiy va uslubiy matnlardan olingan misollar yordamida kontekstual tahlil qilingan. Bu nafaqat nazariy bilimlarni berdi, balki bunday so'zlarning real hayotda qo'llanilishini ham namoyon etdi. Xulosa qilib aytganda, maqolaning metodologik yondashuvi nazariy manbalarni qiyosiy ko'rib chiqish, leksik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish, lug'atga asoslangan

tasniflarni taqqoslash, turli tillar doirasida umumlashtirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Arxaizmlarning paydo bo'lishi ya'ni, ayrim so'zlarning eskirib, passiv lug'at tarkibiga o'tishiga olib kelgan omillar – tilshunoslikda "lingvistik" va "ekstralingvistik" omillar bilan izohlanadi. Lingvistik omil – tildagi rivojlanish, ya'ni yangi so'z yoki shakllarning paydo bo'lib, eski so'zning o'rni egallashi. Masalan, ma'lum bir tushuncha uchun yangi, qulayroq yoki ta'sirchanroq sinonim yaratilsa yoki boshqa tildan so'z o'zlashtirilsa, avvaldan mavjud so'z asta-sekinlik bilan arxaizmga aylanishi mumkin. Ingliz tilshunoslari bu jarayonni shunday tasvirlaydilar: "New words spring up and replace the old ones. Some words stay in the language a very long time, ... Other words live but a short time and disappear leaving no trace", ya'ni "yangi so'zlar paydo bo'lib eski so'zlarni siqib chiqaradi; ayrim so'zlar juda uzoq yashasa, boshqalari qisqa umr ko'rib bedarak yo'qoladi. Demak, arxaizmlarning paydo bo'lishi tabiiy ravishda sinonimlar raqobati va lug'at yangilanishi bilan bog'liq jarayondir.

Ekstralingvistik sabab – til tashqarisidagi omillar sababli, eng avvalo ijtimoiy hayot va madaniyatdagi sodir bo'lgan o'zgarishlar. Aksariyat hollarda bu omil istorizmlarga tegishli bo'lsa-da, ba'zan arxaizmlarga ham ta'sir qiladi. Masalan, tarixiy davrlar o'zgarib, nutq uslubi va urf-odat o'zgarishlarga yuz tutganda, ayrim so'zlar davr ruhiga nomuvofiq ko'rinishda boshlaydi va asta-sekin faol qo'llanishdan chiqib passiv lug'at tarkibiga o'tadi. Shuningdek, til islohoti yoki adabiy til me'yorining o'zgarishi natijasida ham ba'zi so'zlar eskirishi mumkin. XX asrda turk tilida amalga oshirilgan til islohoti jarayonida ko'plab arabcha-forscha so'zlar yangi turkcha muqobilalar bilan almashtirilishi va eski variantlarning arxaizmlarga aylanishi buning yaqqol misoli bo'la oladi. Ya'ni, bu sun'iy (rejalashtirilgan) lingvistik o'zgarish bo'lishiga qaramasdan, ekstralingvistik, ya'ni til siyosati omiliga borib taqaladi.

Tilshunos olimlar arxaizmlarning paydo bo'lish sabablari haqida fikr bildirarkan, ko'pincha yuqoridagi omillarga urg'u beradilar. Masalan, Shanskiy tilning ichki rivoji doimo sinonimik qatlamni yangilab borishini, natijada "eski so'zlar yangi muqobilalar tomonidan faol iste'moldan siqib chiqariladi" deb yozadi. O'zbek tilshunosligida esa "til taraqqiyoti davom etar ekan, ayrim tushunchalar eskirib, so'zlashuv jarayonidan chiqib ketadi [8]" degan umumiy fikr bildirilgan. Bularning barchasi mohiyatan bir xil sababni ko'rsatadi: arxaizmlar – tilning leksik tizimidagi rivojlanish va yangilanish jarayonining mahsulidir, ya'ni ayrim so'zlar o'rni boshqa zamonaviyroq sinonimlari faol ishlatila boshlaganligi sababli eski so'zlar faol foydalanishdan chiqib, passiv lug'at tarkibiga o'tadi.

Demak, arxaizmlarning paydo bo'lishining asosiy sababi – bu sinonimik almashinuv va lingvistik evolyutsiya. So'z ifodalagan predmet yoki hodisa zamonaviy hayotda saqlanib qolsada, uning dastlabki nomi yangi nom bilan almashinadi.

Istorizmlarning paydo bo'lishiga esa bevosita jamiyatdagi tarixiy o'zgarishlar sabab bo'ladi. Ya'ni – muayyan so'z bilan nomlangan narsa yoki hodisaning hayotdan chiqib ketishi natijasida u nom bo'lgan so'z ham eskiradi. Bu holda so'z lug'at tarkibidan chiqadi, chunki bildiradigan reallikning o'zi endi mavjud emas. Tilshunoslikka oid manbalarda bu jarayon quyidagicha ta'riflanadi: "устаревшие слова, вышедшие из употребления в связи с исчезновением тех реалий, которые они обозначали". Ya'ni, istorizmlar ular anglatar reallik (tushuncha) yo'q bo'lib ketgani munosabati bilan iste'moldan chiqqan so'zlardir.

Tilshunos olimlar fikriga ko'ra, istorizmlarni yuzaga keltiruvchi omil – ekstralingvistik, ya'ni tildan tashqari holatdir. Jamiyat hayotidagi yirik tarixiy, madaniy, texnologik

o'zgarishlar, masalan, davlat tuzumining almashishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, eski urf-odat va buyumlarning yo'qolishi natijasida til lug'at tarkibidan bir qator so'zlar chiqib ketadi. Masalan, texnik taraqqiyot eski buyumlarni hayotdan chiqaradi: masalan, "omoch", "kergi" kabi qishloq xo'jaligi anjomlari yo'qolishi bilan ularning nomlari ham istorizmga aylangan.

Tilshunos olimlar istorizmlarning paydo bo'lish sababini izohlab, aksaryat hollarda bu hodisani til va tarixiy taraqqiyotning aloqasi sifatida izohlaydilar. Masalan, rus olimi E. A. Zemskeya: "Историзмы – названия исчезнувших предметов и явлений; они выходят из языка вместе с тем, как исчезают из жизни эти предметы и явления" deya ta'kidlaydi. Ya'ni – istorizmlar - yo'qolib ketgan narsa va hodisalarning nomlari bo'lib, ular hayotdan yo'qolishi bilan birga tildan ham chiqib ketadi. Bu fikrni tasdiqlovchi ko'plab misollar mavjud bo'lib, ularni turli tillar materialida kuzatish mumkin. Ingliz tilshunosi I. Galperin ham shunga o'xshash fikr bildiradi: "The things and phenomena to which historical words refer have long passed into oblivion [9]" – ya'ni istorizmlar nomlagan narsa va hodisalar allaqachon unutilgan, tarix qa'riga singib ketgan.

Istorizmlarning paydo bo'lishiga oid yana bir ilmiy qarash – bu madaniy yodgorlik konsepsiyasidir. Unga ko'ra, har bir eskirgan so'z – o'tmishdan qolgan meros. Ayrim tarixiy so'zlarning tilimizda saqlanib qolishi – tarixiy xotiraning saqlanishi demakdir. Haqiqatan ham, istorizmlar odatda lug'atdan butkul yo'qolib ketmaydi – ular passiv lug'at

tarkibida bo'lsa-da, zarurat tug'ilganda – masalan, tarixiy asar yozilganda yoki tarix darslarida nutqda qayta foydalanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, istorizmga aylanishning bosh sababi – tushuncha (realia)ning kundalik nutqda faolligini yo'qotishidir. So'z nom bo'lgan predmet yoki hodisa o'zining hayotiy faoliyatini to'xtatsa, uni anglatgan so'z ham passiv lug'at tarkibiga o'tadi. Shu sababga ko'ra istorizmlar til taraqqiyotining, jamiyat tarixining bevosita ko'zgusi bo'lib, ularning paydo bo'lish sabablari ham til tashqarisidagi real voqelikka borib taqaladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eskirgan so'zlar til xotirasining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Arxaizm va istorizmlar tilning tarixiy-genealogik rivojlanishini aks ettiruvchi lisoniy hodisalardir. Arxaizmlar hali qo'llanilayotgan tushunchalarni ifodalovchi eskirgan shakllar hisoblansa, istorizmlar zamonaviy hayotdan yo'qolib ketgan voqeliklarning nomlarini anglatadi. Tilshunoslarning ta'kidlashicha, arxaizmlar tilga tarixiy tus beradi va badiiy asarlarda ko'pincha mahorat bilan qo'llaniladi, istorizmlar esa tarixiy voqeliklarni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqotning har bir jihati ilmiy manbalar bilan asoslangan bo'lib, eskirgan lug'at boyligining turli tomonlari haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Amaliy takliflar sifatida shuni aytish mumkinki eskirgan so'zlar lug'atini yaratish, tarjimada izohli yondashuvga amal qilish, va ularni til xotirasini saqlash vositasi sifatida ta'lim jarayoniga tatbiq etish ijobiy natijalar beradi.

ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 118 b.
2. Hojiyev L. Ahmedov A. O'zbek tili leksikologiyasi. O'zbekiston SSR. Fan nashriyoti. – Toshkent, 1981. C142.
3. Gulomov O., Akobirov S. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 1987
4. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006.-b92
5. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006.-b92
6. Шанский Н.М. Устаревшие слова в лексике современного русского языка. Русский язык в школе. №3,1954.6с
7. Galperin I.R. English Stylistics. Moscow.URSS. 83p
8. Oqmirzayeva U. N. Badiiy asar tilidagi tarixiy so'zlarning funksional semantik xususiyatlari. Research and Education. Volume 2/ ISSUE 10/ 2023. P 108-116.
9. Розенталь, Д. Э. (n.d.). Словарь лингвистических терминов (maqola: arxaizmy). Moskva.
10. Ожегов, С. И. (n.d.). Толковый словарь русского языка (maqola: arxaizm). Moskva. Internet manbalari
11. Wikipedia contributors. (n.d.). Архаизм. Retrieved May 22, 2025, from <https://ru.wikipedia.org/wiki/Архаизм>
12. Wikipedia contributors. (n.d.). Устаревшие слова | это... Что такое Устаревшие слова?. Retrieved May 22, 2025, from <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/265971>
13. Oxford English Dictionary. (n.d.). Archaism (n.). In Oxford Learner's Dictionaries. Retrieved May 22, 2025, from <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>
14. Foxford.ru. (n.d.). Устаревшие слова: архаизмы и историзмы. Retrieved May 22, 2025, from <https://foxford.ru/wiki/lingvistika/ustarevshie-slova-arhaizmy-i-istorizmy>